

MADANIYAT SOTSIOLOGIYASI

**Akramova Umidaxon Sharibjon qizi
Miraxmedova Mohinur Mirziyod qizi
Baxromova Mashhura Abror qizi**

Annotatsiya: ushbu maqolada madaniyat va madaniyat sotsiologiyasining jamiyat rivoji uchun ahamiyatliligi, qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarning shakl-tamoyillari, olimlarning madaniyat haqidagi turli xil qarashlari va asrlar mobaynida uning sayqallanib kelayotganligi, inson ongidagi tor ma'nodagi madaniyat tushunchasi va aslida madaniyatning keng ma'nodagi tushunchalari uning kelib chiqishi va shakllanishi haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy hayotimizning uzviy jihatiga aylanib borayotganligi, uning o'tmish va hozirdagi mavqe haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, elita, sivilizatsiya, qadriyat, ijtimoiy institut.

Ko'p yillar mobaynida madaniyat sotsiologiyasi sotsiologiya tarkibidagi yo'nalish sifatida amal qilib kelgan. Shu davrlarda madaniyat jarayoniga nisbatan bo'lgan yuzaki yondashuv madaniyatning ilm sifatida rivojlanishiga ham yuzaki qaralishiga sabab bo'ldi.

Sobiq ittifoq siyosatida yetakchi o'rinn tutgan marksistik doktirinaga binoan madaniyat va madaniyat masalalariga iqtisod va iqtisodiy munosabatlar singari asosiy soha sifatida emas balki ikkinchi darajali masala sifatida yondashilgan. Ma'naviy, ma'rifiy, madaniy sohalarga yuzagi yondashuv natijasida ushbu sohalarning jamiyat a'zolari orasida mavqeい tushub ketishiga, ularga juda kam e'tibor berilishiga, ular rivoji uchun mablag'larning yetarli darajada ajratilmasligiga va, nihoyat, ularning qadrsizlanishiga olib keldi.

Bugungi kundagi madaniyat sotsiologiyasi o'zgacha bo'lmog'i lozim. Agarda yaqin tarixdagi madaniyat sotsiologiyasi o'z predmetini juda tor doira: badiiy adabiyotlarni, san'atni, madaniyat uylarining faoliyatini o'rganish va ularni tahlil qilish, turli kishilar guruhi va qatlamlarini didini o'rganish va hokazolar bilan cheklagan bo'lsa, endilikdagi madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy-ma'naviy hayotimizning uzviy jihatiga aylanib bormoqda. Mustaqillikka erishimizdan bir necha yillar avval ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya sohasida ayrim rivojlangan mamlakatlardan orqada qolgan bo'lsak-da, hozirda yuz berayotgan ulkan ijjobiy o'zgarishlar

jamiyatimizdagi ma'naviyat sohasini, madaniyatning o'zini tubdan o'zgartirib yubordi.

Dunyoda jadal yuz berayotgan global o'zgarishlar madaniyat sotsiologiyasi fani zimmasiga jiddiy ma'naviy maas'uliyat yuklamoqda. Madaniyat sotsiologiyasi yaqinda shakllangan ijtimoiy fan hisoblansa-da, lekin bu atamani umuman yangi atama, deb ham ayta olmaymiz. G'arb mamlakatlari olimlari o'z asarlarida madaniyat sotsiologiyasi atamasini avvaldan ishlatib kelishadi. Xususan, o'tgan asr boshlarida Alfred Veber tomonidan madaniyat sotsiologiyasi haqida bir necha bor to'xtalib o'tilgani ma'lumdir.

Madaniyat sotsiologiyasi fani jamoatchilik e'tiborini o'zining keng qamrovliligi, insonning ijtimoiy holati hamda uning hozirgi va o'tmishtagi jamoaviy mavqeい haqida ma'lumot bera olishi bilan o'ziga qarata olgan. Madaniyat sotsiologiyasi inson borlig'ining ijtimoiy asosi haqida tizimiylar ma'lumotlar beradi.

Bugungi fan texnika jadal rivojlanayotgan vaqtida madaniyat sotsiologiyasining tabiatni, ko'lami, fan sifatidagi ahamiyati va ijtimoiy soha sifatidagi o'rni kabi muhim masalalar tadqiq etilishi kerak. Madaniyat sotsiologiyasining keng qamrovli ekanligi sabablaridan biri u nafaqat ilmiy soha, balki, ijtimoiy soha ham ekanidir. Qiyosiy va madaniyatlararo o'rganilish natijasida madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy sohaga ta'sir qiladi va, o'z navbatida, o'zi ham bu ta'sir ostida bo'ladi.

XXI asr va uchunchi mingyllik boshida insoniyat oldida turgan vazifalar o'zining hajmi va ko'lami jihatidan shu darajada ulug'vor va kattaki, ularni mushtarak maqsadlar uyg'unligisiz amalga oshirish mumkin emas. Jahan svilizatsiyasining muhim beshiklaridan biri hisoblangan O'zbekiston oldida turgan vazifalar esa uning jahon hamjamiyatiga shiddat bilan kirib kelishi asosida yanada konkretlashmoqda.

Madaniyat sotsiologiyasi fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaraganda birmuncha yosh hisoblanadi. Ushbu fanning boshqa mamlakatlarda o'qitilishi ancha ilgari boshlangan, shuningdek, madaniyat sotsiologiyasi fanini o'rganish mamlakat, millat taqdiri hamda kelajagi bilan bevosita bog'liq. Madaniyat sotsiologiyasi fanini o'qitish, o'rgatish, ayni paytda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni qadriyat sifatida anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur fan aholining turli tabaqalari, ayniqsa, talaba-yoshlarda millat ma'naviyatini ilmiy o'rganish orqali yuksak madaniyatnishakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.[1]

"Madaniyat" (arabcha "madaniyat"- Madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik)- kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida

yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va usullari majmui. "Madina" so'zi musulmonlarning aziz tutadigan joyi- Madina shahri nomidan kelib chiqqan, chunki ilk musulmonlar ta'lim-tarbiyani asosan Madinada olganlar. Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, ahloq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Madaniyat tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda-madaniyat tushunchasi insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisini aks ettiradi. Tor ma'noda-madaniyat tushunchasi jamiyatnin' ma'naviy-estetik turmushi darajasini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlar majmui, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan shartlari yig'indisini bildiradi. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra 2000-yil "Xalqaro jahon madaniyati yili" deb e'lon qilinganligi bejizga emas.

Sotsiologiyada "Madaniyat" tushunchasi matematikadagi "sonlar", fizikadagi "gravitatsiya", ximiyadagi "modda" tushunchalari kabi muhim ahamiyatga ega. Madaniyat-insonlarning faoliyat natijalarining majmui o'laroq o'zida ikki holatni, ya'ni madaniy statikani (madaniyatning nisbatan turli ko'rinishlari) va madaniy dinamikani, ya'ni madaniyatning o'zgaruvchan jihatini mujassamlashtiradi.

Madaniyat sotsiologiyasi- "tushunuvchan" ("izohlovchi") sotsiologiya doirasida 70-yillarda Germaniya va Fransiyada vujudga kelgan oqim. Madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy hayotning murakkab shakllari aqliy va ma'naviy hayotni, ya'ni san'atni, din sohasini, fanni va h.k. tahlil etishga qobiliyatsiz bo'lgan pozitivistik sotsiologiyaning nazariy-metodologik chegaralanganligiga aks ta'sir sifatida vujudga kelgan.

Madaniyat-insonning faoliyati, uning oqibatida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lingan. Madaniyatni moddiy vama'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatning ikki asosiy sohasi-moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy faoliyatning barcha sohalari va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy

madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport-aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyat tuzumiga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, is'temol vositalari deb ataladigan narsalar ham kiradi.

Ma'naviy madaniyat ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog'liq bo'Igan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli shakllari har xil tasavvurlar va nazariyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, an'at asarlari, ahloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va h.k. ana shunday faoliyat natijasidir.

Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Birinchidan, har ikkalasi ham madaniyatning uzviy, o'ziga xos qismlari ekanligini unutmaslik kerak, ikkinchidan, inson faoliyatining mahsuli bo'Igan ko'pgina narsalar ham aqliy, ma'naviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida paydo bo'ladi.

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi:

- 1) O'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarini o'zlashtirishdan boshlanadi;
- 2) U yangi qadriyatlarni yaratish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi.

Ana shu ikki jarayon-eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy bog'lanish vorislik deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga xizmat qiladigan progressiv vorislikni unga to'siq bo'ladi dan reaksiyon vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobiy(pozitiv) va salbiy(negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud.

Madaniyatda an'analarning roli beqiyos. Madaniy an'analalar tufayli kihilarning tajribasi to'planib, avloddan-avlodga o'tib boradi. Madaniy an'analalar deganda, faqat marosim va urf-odatlarligini tushunmaslik kerak. Madaniy an'analalar ayni vaqtda avloddan avlodga o'tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan bilimlar, qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar, xulq va did normalari va h.k. kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyat bevosita qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, uning turlari quyidagilar:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'Igan qadriyatlar;
2. An'analalar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladi dan axloqiy qadriyatlar;
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladi qadriyatlar;

4. Odamlar o'rtasidagi jamoaviylik, hamkorlik, xayriyohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladijan qadriyatlar;

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va iraqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar;

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida:

- 1) Umuminsoniy qadriyatlar
- 2) Mintaqaviy qadriyatlar
- 3) Milliy qadriyatlar
- 4) Diniy qadriyatlar turlariga bo'linadi.

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy institutlar deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatları tashkillonadigan muassalar va ularda xulqning muvofiqlashtiriluvni tushuniladi.

Ijtimoiy institutlarning ko'rinishlari:

- 1) Muvofiqlashtiruvchi (relyasion) institutlar (jins, yosh, tartib, kasb turi, qobiliyatga oid mezonlarini aniqlab beruvchi ijtimoiy institutlar).
- 2) Boshqaruv (idora etish) institutlari
- 3) Birlashtiruvchi (integrativ, uyg'unlashtiruvchi) institutlar
- 4) An'analar bilan bog'liq ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiruvchi institutlar (odatlar, marosimlar, qarindosh-urug'chilik munosabatlaridan iborat faoliyatlarini tashkilovchi)
- 5) Madaniy ijtimoiy institutlar (din, san'at, adabiyotlarga doir faoliyatni muvofiqlashtiruvchi).

"Madaniyat" va "sivilizatsiya", tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlik xususida to'xtalamiz.

"Sivilizatsiya"- (lot. fuqarolik, fuqarolikka oid, davlatga oid degan ma'nolarni bildiradi). Bu tushunchani shotland tarixchisi va faylasufi A. Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun ishlatgan bo'lsa, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan edi.

Har qanday sivilizatsiya:

- 1) Muayyan ijtimoiy ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyasiga,
- 2) Takrorlanmas madaniyati, qadriyati, falsafiy qarashlari, odob-ahloq normalariga,
- 3) O'z hayotiy tamoyillariga ega bo'ladi.

Demak, sivilizatsiya – jamiyat rivojidagi bosqich, bo'lib ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasi sifatida madaniyat tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Madaniyat sotsiologiyasi o'z predmetini oydinlashtirishda madaniy statika (muvozanat) hamda madaniy dinamika (rivojlanish) iboralarini qo'llaydi.

Madaniyat statika (muvozanat) elementlariga moddiy ma'naviy va nomoddiy (ma'naviy) madaniyat kiradi.

Madaniyat kompleksi(majmui) – madaniy obyektlar va xislatlarning yig'indisi bo'lib, unga:

-madaniy reallik – madaniy meros, madaniy merosning ahamiyati, uning obyektiv bahosi, madaniy universitetlar, turmush tarzi tushunchlari kiradi.

Bundan tashqari, madaniy sotsiologiyada madaniy yoki ijtimoiy normalar kategoriyasi ham bo'lib, unga odamlardagi ko'nikmalar, did, qiliq, qadriyatlar, diniy e'tiqodlar odatlar, a'analar, bilim va ilm, rasm-rusumlar, jamiyat a'zolarining ahloq kodeksi va boshqalar kiradi.

Madaniyat shakllari.

Asosan uch turli madaniyat shakli farqlanadi:

1. Elitar madaniyat
2. Xalq madaniyat
3. Ommaviy madaniyat

1. Elitar madaniyat – (fransuzcha – "eng sara" so'zidan olingan) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat, fanni rivojlantirish funksiyalarini oshiruvchi oliy imtiyozli qatlamidir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Nisshe qarashlarida bayon qilingan bo'lib tizimli ko'rinishga XX asr boshlarida V.Peretto, G.Moska, Mixelslar tomonidan keltirilgan. Hozirgi g'arb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita hokimiyatga yo'nalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyatda eng ko'p obro', maqom, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va ahloqiy ustunlikka ega odamlar (X.Ortega-i-Gasset), jamiyatning noijodiy ko'pchilikdan farq qiluvchi qismi (Toinbi), ega malakali mutaxassislar, menedjerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilar (texnologik determinizm) dir, deb izohlanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasining yirik olimlari Mills, Rismen, Bell asarlarida elita nazariyasi yanada rivojlantirilmoxda. Kiborlar (yuqori toifa aholi) madaniyati esa- jamiyatning imtiyozli tabaqalari uchun shakllantiriladi. "San'at san'at uchun" qoidasiga asoslangan madaniyatda nafis san'at, mumtoz musiqa, faqat kiborlargina mutoala qiladigan badiiy adabiyot namunalari nazarda tutildi. Odatda kiborlar madaniyati namunalari oddiy odamlar uchun murakkab bo'lib, ularni ko'proq intelektual-estetik maqomga ega bo'lgan, yuksak did vakillari uchun yaratiladi.

2. Xalq madaniyati – maxsus tayyorgarligi bo'lmagan shaxslar tomonidan buniyod bo'lgan madaniyat. Xalq ijodining mualliflari odatda no'malumdir. Jumladan, afsonalar, ertaklar, dostonlar ("Go'ro'g'li", "Alpomish" va h.k.) shular jumlasidan bo'lib, ular yakka (masalan, baxshilar), guruhiy (qo'shiq yoki o'yin ijrosi) yoki ommaviy (masalan, sayillar, xalq bayramlari) ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

3. Ommaviymadaniyat – XX asr o'rtalarida ommaviy muloqot va axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruqlar uchun yetarli bo'lishi natijasida shakllanganva mohiyatan barcha yoshdagi aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari (ommaviy Estrada musiqasi, sirk va h.k.). Ommaviy madaniyat odatda kiborlar yoki xalq madaniyatiga nisbatan kamroq badiiy qadrga ega va u omma tomonidan o'zlashtirilishiga mo'ljallab yaratiladi. Bu asosan industrial jamiyatlarga xosdir. Ommaviy madaniyat barcha odamlarga qaratilgan bo'lib mutassil ravishda kundalik hayot uchun ishlab chiqiladi va ommaviy axborot vositalari faoliyatida yorqin namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari jamiki madaniyat turlari, madaniy qadriyatlarning jamiyat a'zolari o'rtasida keng yoyilishi va mustahkamlanishiga imkon beradi. Elitar madaniyat bilan jamiyat a'zolari, ijtimoiy qatlamlarning barchasi o'qish jarayonida, ya'ni o'mirlik davrida tanishtirilsa, kishilarning qalbida qadriyatlarning barcha turlari shakllanib, umrbod muhrlanib qoladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, qaysi davrda, qaysi jamiyatda bo'lishdan qat'i nazar, kishilarning o'zları istagan madaniyat turini tanlash imkoniyatlari erkin bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mansur BEKMURODOV, Nargiza YUSUPOVA "Madaniyat Sotsiologiyasi" Toshkent-2010
2. Kalanov K. Madaniyat. Madaniyatshunoslik, darslik 2020 O'zbekiston.
3. U.Qoraboyev "O'zbekiston madaniyati" o'quv qo'llanma 2011 O'zbekiston
4. U.U.Mansurov, A.Sh.To'xtabayev "O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi" Toshkent-2021
5. E.Gulmetov, T.Qobiljonova, Sh.Ernazarov, A.Mavrulov "Madaniyatshunoslik" maruzalar to'plami Toshkent 2000
6. [https://elib.buxdu.uz/indeks.php/item/13359-madaniyat-va-sivilizatsiya-madaniyatning-asosiy-turlari-va -yo'nalishlari](https://elib.buxdu.uz/indeks.php/item/13359-madaniyat-va-sivilizatsiya-madaniyatning-asosiy-turlari-va-yo'nalishlari)

7.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/sotsiologiya/madaniyat-sotsiologiyasi>